Talabalarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik- psixologik muammolari

Umarova Muqaddas Muxtarovna
Qo’qon davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya : ushbu maqolada talabalarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish - ta’limda integratsiyaning birligi fenomeni haqidagi ilmiy-amaliy axborotlarni tadqiq qilish masalalari, talabalarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik muammolari xususida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: kreativ kompetentlik, integrativ yondashuv, ijodiy, integratsiya, fenomen, kasbiy tayyorgarlik, ta’limning shaxsga yo’naltirilishi.

Hozirgi zamon pedagogika –psixologiya fanlari talabalarning kasbiy va ijodiy, kreativ kompetentligi shakllanishi uchun ta’lim jarayonida o’qitishning yangi usullarini joriy qilishni talab qilmoqda. Talabalarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta’limda integratsiyaning birligi fenomeni haqidagi ilmiy-amaliy axborotlarni tadqiq qilish, integrativ yondashuv tushunchalarini talabalarning kasbiy tayyorgarligi tizimini tavsiflash uchun qo’llashning maqsadga muvofiqligini tahlil qilishga asoslanadi. Ma’lumotnoma xarakteridagi adabiyotlar asosida bajarilgan integratsiya tushunchasining kontent-tahlili uning asosiy va muhim talqinlarni birlashtiradigan, ta’limga ham aloqador bo’lgan xususiyatlarini ajratish imkonini beradi.

Ta’lim va tarbiya berishda integrativ yondashuvning bir qancha asosiy g’oyalari mavjud:

- ta’limning shaxsga yo’naltirilishi;
- fan tuzilmalarini va faoliyat usullarini umumlashtirilgan holda shakllantirish;
- o’rganishda ma’no shakllantiruvchi motivlarning ustuvorligi;
- o’qitishni tizimli tashkil etish va olib borish;
- ta’lim – tarbiya berish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni bartaraf etish;
- integrativ jarayonlarda ko’zlanayotgan maqsadlarga erishish;

O’zaro muloqotda bo’lish va fikrlar almashinuvi.

Integratsiyalashgan darslar fanlararo aloqalarning an’anaviy qo’llanilishidan farq qiladi, ular faqat epizodik ravishda boshqa fanlardan materiallarni kiritishni o’z ichiga oladi. Integratsiyalashgan darslar bir mavzuga bo’ysunadigan turli fanlar bo’yicha bilim bloklarini birlashtiradi. Shuning uchun integratsiyalashgan darsning asosiy maqsadini to’g’ri belgilash juda muhimdir. Agar umumiy maqsad aniqlansa,

u holda obyektlar mazmunidan faqat uni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar olinadi.

Fanlararo integratsiya bir o’quv fanining materialidan boshqasini o’rganishda foydalanishda namoyon bo’ladi. Talabalar ongida o’rganilayotgan obyektni yaxlit holda tassavurga keltirishni shakllantirish, ya’ni “kognitiv” natijaga olib kelishda aynan yuqorida ko’rsatilgan darajada olib boriladigan mazmunni birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiq etilayotgan obyektni integrativ holda o’rganish, obyektni har tomonlama aloqalar, munosabatlar jihatlarini mukammal bilishga imkon beradi. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi uni tashkil etuvchi elementlarning o’zaro aloqadorligi, o’zaro munosabatlari tashkil etadi. Pedagogik, ta’limiy jihatdan esa integratsiya, uzviylik, fanlararo va o’zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Pedagog olimlar va tadqiqotchilar integratsiyani turli yo’nalishlarda tadqiq etishni tavsiya qiladilar. Bular:

- o’quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o’rganish;

- turli o’quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;

- ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarinini rivojlantirishga integrativ yondashuv asosida ta’limni tashkil etishda eng avvalo “kreativlik” so’zini yana bir bor tahlil qilishimizga to’g’ri keladi. Xo’sh, kreativlik nima? ”Kreativlik – bu inson aqliy salohiyatining yuksak darajasi hisoblanib, obyektdagi aloqadorliklarni tahlil qilish va o’zgartirish asosida yangi mazmunni yaratadi”. Tahlilimiz natijasi shuni ko’rsatadiki, “kreativlik” va “integrativ yondashuv” tushunchalari bevosita o’zaro bog’liqligini ko’rishimiz mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga mutaxassislik fanlari darslarida integratsiyalashgan ta’limdan foydalangan holda kreativ yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish, ularning kelgusi faoliyatlarida kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirishning asosiy omili deb hisoblasak, mubolag’a bo’lmaydi. Kreativ shaxs maqomiga ega bo’lish - hamisha qandaydir yangilikni yaratish, originallikka erishishdir. Kreativ yondashuv – bu har qanday hayotiy jarayonga tegishli tafakkur qobiliyati. Mazmuniga ko’ra kreativlik – bu har kungi hayotda: ishda, munosabatlarda, o’qishda va o’z ongini boyitishdagi kreativ kompetentlikdir.

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda kasbiy faoliyatda ta’limni tashkil etishda integratsiyani amalga oshirish bo’yicha ishni boshlashdan oldin bir qator muhim harakatlarni bajariladi:

- integratsiyalashuvi maqsadga muvofiq bo’lgan va talabalarda o’rganilayotgan obyektning yaxlit ko’rinishini yaratishga yordam beradigan bilim sohalarini aniqlash;

- tahlil qilish va ushbu sohalardan integratsiyalashuvi eng muhim bo’lgan tarkibni tanlash;

- talabalalarning mutaxassislik doirasida dastur talablari va bolalar yosh xususiyatlarini hisobga olish;

- ta’lim mazmunini integratsiyalashning bir yoki bir nechta asosiy yo’nalishlarini belgilash;

- talabalarning turli xil fikrlash turlarini shakllantirishning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko’p miqdorda turli xil vizual materiallardan (namoyish, tarqatma material, o’yin) foydalanish;

- talabalar bilan ishlashda (muammoli vaziyatlar, mantiqiy topshiriqlar, eksperiment, modellashtirish va boshqalar) samarali xarakterga ega bo’lgan usul va usullardan foydalanish.

Ma’lumki, o’qitish ishlarida yuqori samaradorlikka erishish dars turlari, tiplari, shakllari va o’quv mazmuniga mos keluvchi o’qitish usullarini, ya’ni ta’lim texnologiyalarini tanlash hamda ularni qanday qo’llashga bog’liqdir.

V.S. Bezrukova pedagogika sohasida integratsiyaning asosiy yo’nalishlarini ajratib ko’rsatdi va maqsadini belgilab berdi:

1) bilim predmetini kengaytirish va chuqurlashtirish;
2) o’qitishda kop predmetlilikni bartaraf etish;
3) mavzuni o’rganish vaqtini qisqartirish (bo’lim, butun kurs);
4) takrorlashni bartaraf etish;
5) ta’lim texnologiyasining o’zgarishi;
6) bilim predmetining tor tomonlarini ko’rishni yengish;
7) shaxs rivojlanishi uchun nisbatan qulay shart-sharoitlarni yaratish.

Shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni tanlash talabalarning shaxsiy xususiyatlarini o’z ichiga oladi. Faoliyat yondashuvining bilim va ko’nikmalarga qarama-qarshi emasligi, aksincha uning tarkibiy qismi sifatida qaralishi ushbu yondashuvning o’ziga xos xususiyatidir.

Mazkur texnologiya talabalarda nostandart vaziyatlarni hal qilishda ijodiy yondashuvni rivojlantirish bilan birga, ularning shaxsiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi. Vizuallashtirilgan topshiriqlar yordamida ta’lim jarayonining samaradorligi oshib, talabalar o‘rtasida ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Talabalarni kreativ kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati shundaki, bu yondashuv turli fanlar, metodlar va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ta’minlaydi. Ushbu yondashuvning xulosaviy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Kreativ kompetentlikni shakllantirishda integratsiya zarurligi:

- Pedagogik- psixologik va texnologik bilimlarning uyg‘unlashuvi orqali talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

- Integrativ yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga xizmat qiladi.

2. Ijodiy muhitni rivojlantirish:

- Fanlararo integratsiya asosida o‘quv jarayonida ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi shart-sharoitlar yaratiladi.

- Turli soha va usullarning birlashuvi talabalar ongida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Innovatsion texnologiyalarning roli:

- Ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali talabalar ijodiy faoliyatlarini samarali tashkil etish imkoniyatlari kengayadi.

- Interaktiv vositalar va texnologiyalar ijodiy yechimlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va rag‘batlantiradi.

4. Individuallik va integratsiyaning uyg‘unligi:

- Har bir talabaning individual ehtiyojlariga mos ravishda kreativ kompetentlikni shakllantirishda integratsion yondashuvning qo‘llanishi samaradorlikni oshiradi.

- Talabalarning shaxsiy qobiliyatlari, ehtiyojlari va kasbiy maqsadlariga moslashtirilgan integratsiya yondashuvning natijadorligini ta’minlaydi.

Integrativ yondashuv talabalarning ijodiy kompetentligini rivojlantirishda kompleks yondashuvni taqdim etib, ular uchun zamonaviy pedagogik amaliyotga mos keladigan, ijodkor va innovator sifatida shakllanish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning joriy etilishi nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki talabalarning professional rivojlanishida muhim poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saydullaeva N.I.Bo’lajak tarbiyachilarni kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.Dis.avtoreferati.2024.

2.Umarova M.M. For The Journal International journal of Pedagogics (ISSN 2771-2281 Innovative Technologies In The Preschool Education Process.Vol.06.Issue 01 January 2026, 50-54

3. Umarova M.M. Science and innovation ‘ xalqaro ilmiy jurnal .Respublican Scientific and practical conference.”Farzand tarbiyasida ota-onaning roli.Zamonaviy pedagogic-psixologik yondoshuvlar’’.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota onalar bilan samarali hamkorlik muammolari va uning ta’lim sifatiga ta’siri. 2025 October 255-257

4. Umarova M.M. Science and innovation ‘ xalqaro ilmiy jurnal Respublican Scientific and practical conference. .”Farzand tarbiyasida ota-onaning roli.Zamonaviy pedagogic-psixologik yondoshuvlar.’’ MTT rivojlantirish markazlarida bolalar nutqining rivojlanishida ota-onaning roli. 2025. October .248-250

5. Umarova M.M. Oscar publishing .International Journal of Pedagogics. Scientific and Theoretical Foundations of The Formation of Ecological Awareness in Preschool Children. VOLUME Vol.06 Issue 04 2026 260-265

6. Umarova M.M. Kokand University HERALD Qo’qon Universiteti xabarnomasi OAK 01-08/1819/6. “EdTech” Platformalarning maktabgacha ta’limdagi o’rni. 28-31.